

**TALABALARING NAZARIY BILIMLARINI ISHLAB CHIKARISH BILAN INTEGRATSIALASHDA  
AMALIY KOMPITENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

Xakimova Farida Abdullayevna

Termiz shahar 1-maktab texnologiya fani yetakchi o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:**

Mazkur maqolada talabalarning o'quv faoliyati bilan ishlab chiqarish ta'lmini integratsiyalash, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish, talabalar faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish tendentsiyalari haqida to'liq bayon etilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** tendentsiya, ta'lmini integratsiyalash, kognitiv faoliyat, didaktik imkoniyatlar, o'quv-bilish faoliyatini, faol metod, o'quv mehnati, mantiqiy fikrlash.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitishning turli shakllari va metodlarini qo'llash imkoniyati mavjud. Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlanirish uchun ta'limning faol shakllari, vositalari va metodlarini qo'llash talab qilinadi. Bunday metodlar sirasiga ajdodlarimiz tomonidan qo'llanilgan mantiqiy fikrlashga undovchi usullarni ko'rsatish mumkin. Bunda o'qituvchining muhim vazifalaridan biri talabalarda faollikni vujudga keltiruvchi vaziyatlarni tashkil etishdan iborat. O'qitishning faol metodlari yordamida talabalarda faoliyat tajribasi hosil qilinadi. Bunday metodlar sirasiga dialog metodini kiritish mumkin. Mazkur metodni qo'llash natijasida o'qituvchi bilan talabalar, talabalar bilan talabalar orasida o'zaro munosabat tajribasi hosil bo'ladi, muloqot ko'nikmalarini va nutq jadal rivojlanadi, o'quv-bilish vazifalarini guruh bo'lib yechish imkoniyatlari kengayadi.

Oliy ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish, vaziyatlarni loyihalash, o'yin, tadqiqotlarni amalga oshirish, baxs-munozara, suhbat, tahlil-mutolaa kabi metodlarni qo'llash o'quv-bilish faoliyatini rivojlanirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlanirib, ularning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Samarali ta'lim texnologiyalari har bir talabaning o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirishda faollik ko'rsatishi, o'quv mehnati natijalari uchun mas'uliyatni his qilishi, egallagan bilimlarning shaxs mavqeini oshirishga xizmat qilishini anglab yetishini ta'minlaydi.

Talabalarni faollashtiruvchi ta'lim jarayoni talabaning tizimli fikrlash imkoniyatlarini rivojlanirish orqali bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash, jamoa bo'lib fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, o'zaro munosabat va muloqotga kirishishga oid ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, individual va hamkorlikda qarorlar qabul qilish, mas'uliyatlilikni tarbiyalash, jamoa va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish imkonini beradi.

O'quv jarayonini tashkil qilishda nazariy bilimlarini ishlab chikarish bilan integratsialashda amaliy kompitensiyasini rivojlanirish aniq bir o'quv fanidan nazariy bilim va amaliy malakalarining mantiqiy tugallangan qismlari yordamida alohida modullarga bo'lingan o'quv materialini talabalar tarafidan izchil va puxta o'rganishni nazarda tutadi. Har bir modul uchun ma'lum miqdordagi kreditlar ajratiladi, unda o'quv ishlarining hajmi o'lchanadi. Har xil turdag'i darslarga tayyorgarlik ko'rayotgan talabalar zamonaviy o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar oqimida tezda harakat qilishlari, ularni tahlil etishlari, tanqidiy tushunishlari, muhim tomonlarini ajratib ko'rsatishlari, mantiqiy tuzilishlari va shu bilan erkin tarzda egallash va o'zlashtirish qobiliyatini namoyish qilishlari zarur. Ta'limning eng yangi texnologiyalaridan, shuningdek, maktabdan boshlab masofaviy ta'limdan foydalanishga e'tibor qaratilgan. Masofaviy ta'lim to'liq talabalarning mustaqil ishi va unga o'qituvchi tarafidan maqsadli

rahbarlik qilishiga asoslanadi. Maqolaning maqsadi o'quv fanlari va fanlarini o'rganishda talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilishda va ularning o'quv faoliyati bilan ishlab chiqarish ta'lmini integratsiyalash, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chikarish bilan integratsialashda amaliy kompitensiyasini rivojlantirish vositalari yordamida ularning bilish qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. Bunda allomalar merosidan olingan mantiqiy fikrlash, hozirjavoblikka undovchi didaktik vositalar muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chikarish bilan integratsialashda amaliy kompitensiyasini rivojlantirishda auditoriyadagi pedagogik jarayonlar bilan bir qatorda mustaqil ishlar ham alohida ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikma, malakalar va analitik-tahliliy kompetensiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy tajribadan hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish orqali ham talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish mumkin. Bunda o'quv materiallari bilan ishslash jarayonida talabalar turli o'quv predmetlari bilan bog'liq faoliyat usullarini ham egallashlari zarur. O'quv predmetlari bilan bog'liq holda faoliyat usullarini qo'llash quyidagilarni o'z ichiga oladi: tahlil, umumlashtirish, qiyoslash, ommalashtirish, topshiriqlarni yechish algoritmlarini qo'llash, tashxis qo'yish va natijalarni tahlil qilish.

Ta'lif natijasida talabalar bilimlarni qo'llash algoritmlari, topshiriqlarni yechish jarayonida ulardan foydalanish layoqatiga ega bo'lislari lozim. Talabalarda bunday faoliyatni shakllantirish natijasida mustaqil ishslash, topshiriqlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqtini qisqartirish, o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun sarflagandagina kuchni tejash imkonini beradi.

Mustaqil faoliylarni tashkil qilish talabalarni tayyorlashning butun davri mobaynida tizimli xususiyatga egadir. Mustaqil kognitiv faoliyatni optimallashtirish uchun talabalarning individual ish rejali tashkil qilinadi, ular nafaqat talabalarga erkin tarzda olingan bilimlarning kerakli miqdori borasida ma'lumot berish vositasi bo'libgina qolmay, balki o'qish vaqtini va ularning individual harakatlarini to'g'ri taqsimlashga imkon beradi. Istalgan natijaga erishish., bunda ijtimoiy tajriba tashqi yordamisiz o'zlashtiriladi, bilim, ko'nikma olinadi va uning o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Har qanday faoliyat singari, mustaqil ta'lif faoliyati ham o'z tuzilishiga ega bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: motivatsiya, o'quv vazifalari, o'quv harakatlari, o'z-o'zini nazorat qilishga aylanadigan nazorat, o'z-o'zini baholashga aylanadi. Bunday faoliyat aniq bir maqsaddan kelib chiqadi, sub'ektning faoliyat natijalari haqidagi fikrlarni aks ettiradi va o'z-o'zini tarbiyalash shaklini oladi. Mustaqil ishning asosiy tomoni shundaki, u nafaqat ta'lif masalalarini, balki o'quvchining o'zini-o'zi takomillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish masalalarini ham hal qiladi.

An'anaviy ta'lifda talabalarga taklif etiladigan mustaqil ish shakllariga quyidagilar kiradi: insho; birlamchi manbalarni qayd etish, konspektlar, qayta ishlangan material rejasini tuzish; ko'rib chiqish, izohlash, ko'rib chiqish, treninglar o'tkazish, muammolarni hal qilish; diagrammalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalarni tuzish; dizayn, grafik, hisoblash ishlari, testlar, didaktik materiallar ishlab chiqish; mustaqil nazorat ishi, individual ijodiy topshiriqlarni bajarish, fakultetning o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'ladigan boshqa shakllardan iboratdir.

Talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chikarish bilan integratsialashda amaliy kompitensiyasini rivojlantirish, inson faoliyatining hamma sohalarini kompyuterlashtirish tendentsiyalari bilan bog'liq tarzda hozirgi kunda quyidagilar ham qo'shiladi: shaxsiy kompyuter bilan ishslash, o'quv dasturlarini

gayta ishlash; didaktik materiallarning elektron variantlari bilan ishlash, Internetda kerakli ma'lumotlarni izlash ham kiradi.Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi axborotni oddiy iste'molchi emas, balki bilimga ijodiy talabgor hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda, o'qituvchining vazifasi nafaqat ma'lumotni tayyor shaklda uzatish, balki o'quvchini mustaqil bilish faoliyati bilan shug'ullanishga chorlash, bilimlarni o'zlashtirishda mustaqillik malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa sifatida shuni aytish joziki,talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chikarish bilan integratsialashda amaliy kompitensiyasini rivojlantirish, mustaqil ishlarini tashkil qilish masalasi bugungi va o'tmishdagi ko'pgina ishlarda ko'rib chiqiladi. O'quv jarayonida talabalarning mustaqil ishi va mustaqil faoliyatini belgilash borasida mualliflarning ko'p qirrali pozitsiyalarini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishning o'rni va metodikasi haqida yagona fikr mavjud emas.Ayrim olimlar talabalarning mustaqil ishini bir ma'noli, universal va hamma o'qituvchilar uchun maqbul ta'riflash mumkin emasligini ta'kidlab, buni ushbu voqeanning ko'p o'lchovliligi, murakkabligi va ko'plab tashqi omillarga bog'liqligi bilan izohlaydilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mavlonov R. A. Qurilish konstruksiyasi fanini fanlararo integratsion o'qitish asosida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №.9. – S. 600-604.
2. No'manova S. E. Ta'lim jarayonida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirish metodikasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 9. – S. 585-589.
- 3.Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1431-1436.
4. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 179-182.
5. Zokirova, D. N. (2018). Mustaqil o'r ganishga undash orqali ta'lim berishda guruh bo'lib ishlashni qo'llab-quvvatlash. Nauchnoye znaniye sovremennosti, (4),15-21.
- 6.Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.